“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=372

2026-yil
6-son
iyun
ISSN 3093-8546



FATF tavsiyalarini O‘zbekiston huquq tizimiga implementatsiya qilishning ma‘muriy-huquqiy mexanizmlari

Fayzulla Mirzayev,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
dotsent
e-mail: f.i.mirzaev@proacademy.uz

Аннотация. Maqolada FATF hujjatlarining huquqiy tabiati va ularni O‘zbekiston huquq tizimiga joriy etishning ma’muriy-huquqiy mexanizmlari tahlil qilingan. FATF standartlari davlat siyosati va xalqaro baholash mezoni bo‘lsa-da, jismoniy hamda yuridik shaxslar uchun majburiyatlar faqat tegishli talablar milliy normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangandan keyin yuzaga kelishi asoslangan. Normativ va institutsional implementatsiya ma’muriy-protsessual amalga oshirish hamda samaradorlikni baholashdan farqlangan. Yevroosiyo guruhi hisobotlari asosida milliy mexanizmni takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Калит сўзлар. FATF standartlari, JFODL/TMQK, implementatsiya, yumshoq huquq, ma’muriy-huquqiy mexanizm, normativ transformatsiya, texnik muvofiqlik, institutsional samaradorlik

Аннотация. В статье исследуются правовая природа документов FATF и административно-правовые механизмы их имплементации в правовую систему Узбекистана. Обосновывается, что стандарты FATF служат ориентиром государственной политики и критерием международной оценки, тогда как обязанности физических и юридических лиц возникают только после закрепления соответствующих требований в национальных нормативно-правовых актах. Нормативная и институциональная имплементация разграничена с административно-процедурной реализацией и оценкой эффективности. На основе отчетов Евразийской группы сформулированы практические предложения по совершенствованию национального механизма.

Ключевые слова. стандарты FATF, ПОД/ФТ/ФРОМУ, имплементация, мягкое право, административно-правовой механизм, нормативная трансформация, техническое соответствие, институциональная эффективность.

Annotation. The article examines the legal nature of FATF documents and the administrative and legal mechanisms for their implementation in

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Uzbekistan. It argues that FATF standards guide public policy and serve as benchmarks for international assessment, while obligations for natural and legal persons arise only after the relevant requirements have been incorporated into national legislation. Normative and institutional implementation is distinguished from administrative-procedural application and effectiveness assessment. Drawing on Eurasian Group reports, the article formulates practical proposals for improving the national mechanism.

Keywords. FATF standards, AML/CFT/CPF, implementation, soft law, administrative and legal mechanism, normative transformation, technical compliance, institutional effectiveness

1989-yil iyul oyida G7 davlatlari sammiti qarori bilan Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi moliyaviy choralarni ishlab chiqish guruhi — FATF tashkil etildi. Uning zimmasiga jinoiy daromadlarni legallashtirish usullari va tendensiyalarini o‘rganish, milliy hamda xalqaro choralarni tahlil qilish va davlatlar uchun qo‘shimcha huquqiy-tashkiliy choralarni ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Shu tariqa mazkur hodisa alohida davlat doirasidagi huquqbuzarlik emas, balki xalqaro moliyaviy tizim barqarorligi va yaxlitligiga tahdid soluvchi transmilliy xavf sifatida e’tirof etildi.

1990-yilda FATF jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi dastlabki 40 ta tavsiyani qabul qildi. 2001-yilda uning vakolat doirasi terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan kengaytirilib, avval sakkizta, keyinchalik to‘qqizta maxsus tavsiya ishlab chiqildi. 2012-yilda ular yagona 40 tavsiyalik tizimga birlashtirildi va standartlar ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi choralarni ham qamrab oldi. Keyingi yangilanishlarda virtual aktivlar, benefitsiar mulkdorlik, aktivlarni qaytarish va transchegaraviy to‘lovlar bilan bog‘liq xavflar hisobga olindi[1].

FATF standartlari 40 ta Tavsiya, ularga doir Izohlovchi qaydlar va Glossariydagi tegishli ta’riflardan iborat. Rahbariy hujjatlar, ilg‘or amaliyotlar va tipologik hisobotlar standartlarning tarkibiy qismi bo‘lmay, tavsiyalarni talqin qilish, xavflarni baholash va maqbul amaliyotni shakllantirishga xizmat qiladigan metodik hamda tahliliy manbalardir. Shu sababli ular o‘z-o‘zidan jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yangi majburiyat tug‘dirmaydi.

Standartlarning bajarilishi o‘zaro baholash va keyingi monitoring orqali tekshiriladi. Bu jarayonda nafaqat qonunchilikning texnik muvofiqligi, balki qabul qilingan choralar samaradorligi ham baholanadi. O‘zbekiston FATF tipidagi mintaqaviy tuzilma – Yevroosiyo guruhi doirasida ushbu baholash mexanizmida ishtirok etadi.

BMT Xavfsizlik Kengashining 2462 (2019)-son rezolyutsiyasida FATFning global standartlarni belgilashdagi o‘rni e’tirof etilgan[2]. Biroq bu havola FATF hujjatlariga milliy huquqda avtomatik ravishda umummajburiy yuridik kuch bermaydi. Rezolyutsiyada muayyan majburiy chora belgilangan bo‘lsa, xalqaro majburiyatning manbai FATF tavsiyasi emas, rezolyutsiyaning o‘zi hisoblanadi. FATF talablari esa O‘zbekistonda tegishli milliy normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangandan keyingina bevosita huquqiy oqibat tug‘diradi.

Shu bois FATF hujjatlarining yuridik tabiati, turlari va milliy huquqda amal qilish shakllarini aniqlash nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. Asosiy masala standartlarni mexanik ko‘chirish emas, ularni O‘zbekistonning

konstitutsiyaviy prinsiplari, milliy xavflari va institutsional imkoniyatlariga moslashtirishdir.

Ilmiy adabiyotlarda FATF hujjatlarining yuridik tabiati va milliy huquq tizimlariga ta’siri uch yondashuv asosida izohlanadi. Rasmiy-huquqiy yondashuv FATF tavsiyalarini xalqaro shartnoma yoki milliy normativ-huquqiy hujjat bo‘lmagani uchun mustaqil yuridik majburiy kuchga ega bo‘lmagan “yumshoq huquq” vositasi sifatida baholaydi[3]. Institutsional-amaliy yondashuv o‘zaro baholash, keyingi monitoring, ommaviy ro‘yxatlar va moliyaviy reputatsiya mexanizmlarining davlat siyosatiga kuchli ta’sirini ta’kidlaydi[4]. Uyg‘un yondashuv esa FATF standartlarining bevosita normativ kuchini inkor etgan holda, ularning huquq ijodkorligi va ma’muriy boshqaruv yo‘nalishlarini shakllantirishdagi real ta’sirini tan oladi[5]. Mazkur tadqiqotda aynan shu yondashuv O‘zbekiston huquq tizimi misolida rivojlantiriladi.

Tadqiqotning maqsadi FATF hujjatlarining O‘zbekiston huquq tizimidagi o‘rnini aniqlash, implementatsiyani huquqni amalga oshirish va samaradorlikni baholashdan farqlash, amaldagi ma’muriy-huquqiy mexanizmni tizimlashtirish hamda uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda formal-yuridik, tizimli-strukturaviy, institutsional va qiyosiy-huquqiy metodlardan foydalanildi. Normativ asosni FATF tavsiyalari va baholash metodologiyasi, empirik asosni esa Yevroosiyo guruhining O‘zbekiston bo‘yicha o‘zaro baholash hamda keyingi monitoring materiallari tashkil etdi.

FATFning rasmiy hujjatlarida “FATF standartlari” deganda 40 ta Tavsiya, Izohlovchi qaydlar va Glossariydagi tegishli ta’riflar tushuniladi. Rahbariy hujjatlar, ilg‘or amaliyotlar, tipologik tadqiqotlar va boshqa uslubiy materiallar standartlarning tarkibiy qismi emas; ular talablarni talqin qilish va amalda qo‘llashga ko‘maklashadi. Shu sababli barcha FATF hujjatlarini bir xil yuridik kuchga ega majburiy standart sifatida baholash to‘g‘ri emas.

P.N. Biryukov FATF hujjatlarini xalqaro tashkilot organlarining hujjatlari sifatida tavsiflab, BMT Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalaridagi havolalar asosida ularning milliy munosabatlarni bevosita tartibga solish imkoniyatini ilgari suradi[6]. Muallifning fikricha, BMT Xavfsizlik Kengashi FATF qoidalarining davlat ichki sohasida yuridik jihatdan majburiyligini va to‘g‘ridan - to‘g‘ri amal qilishini tasdiqlagan.

Mazkur qarash FATF standartlarining real institutsional ta’sirini to‘g‘ri ko‘rsatadi, biroq xalqaro majburiyat manbai bilan milliy huquq normasining manbasini birlashtirib yuboradi. Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalarida FATFning standart belgilovchi roli e’tirof etilishi uning barcha hujjatlarini milliy huquqda avtomatik tarzda umummajburiy normaga aylantirmaydi.

FATF standartlari O‘zbekiston huquq tizimiga ikki darajada ta’sir ko‘rsatadi. Davlat uchun ular siyosatni shakllantirish, xalqaro baholashdan o‘tish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish mezonidir. Jismoniy hamda yuridik shaxslar uchun muayyan huquq yoki majburiyat esa faqat tegishli talab vakolatli organ qabul qilgan milliy normativ-huquqiy hujjatda mustahkamlangandan keyin yuzaga keladi. Demak, FATF standartlarining yuridik ta’siri milliy huquqiy shakl orqali ro‘yobga chiqadi.

Bu farq nazorat va javobgarlik amaliyoti uchun muhim: FATF rahbariy hujjati normani talqin qilish yoki xavfni baholashda qo‘shimcha manba bo‘lishi mumkin, biroq qonunchilikda nazarda tutilmagan yangi majburiyat yoki

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

sanksiyani mustaqil ravishda vujudga keltirmaydi.

Implementatsiyani huquqni amalga oshirish va samaradorlik bilan tenglashtirish ham to‘g‘ri emas. Normativ implementatsiya FATF talabining qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatda ifodalanishini, institutsional implementatsiya esa vakolatli organlar, ularning vazifalari va o‘zaro aloqalarini belgilashni anglatadi. Ma’muriy-protsessual amalga oshirish normani mijozni tekshirish, axborot yuborish, tekshiruv o‘tkazish yoki operatsiyani to‘xtatish kabi individual tartib-taomillarda qo‘llashdan iborat. Samaradorlikni baholash esa ushbu vositalarning amaldagi natijasini aniqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasi xalqaro shartnomalar va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip hamda normalarini huquqiy tizimning tarkibiy qismi sifatida e’tirof etadi. Xalqaro shartnomada qonundagidan boshqacha qoida belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidasi qo‘llaniladi. FATF tavsiyalari xalqaro shartnoma hisoblanmagani sababli ularga xalqaro shartnoma ustuvorligi qoidasi tatbiq etilmaydi. Ularni xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsipi yoki normasi sifatida ham avtomatik baholab bo‘lmaydi, chunki Tavsiyalar muayyan siyosiy va texnik standartlardan iborat bo‘lib, muntazam ravishda yangilanadi.

“O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi Qonun xalqaro shartnomalarni tuzish, kuchga kiritish, bajarish va bekor qilishning maxsus tartibini belgilaydi. FATF hujjatlari mazkur tartibdan o‘tmaydi. “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, umummajburiy davlat ko‘rsatmalari vakolatli organ tomonidan tegishli shaklda qabul qilinishi lozim. Binobarin, FATF hujjati O‘zbekistonning milliy normativ-huquqiy hujjatlar tizimiga kirmaydi va shaxsning huquqiy holatini mustaqil ravishda o‘zgartira olmaydi.

Bu holat FATF hujjatlarini huquqiy ahamiyatsiz deb baholashga asos bermaydi. Ular huquq ijodkorligi uchun mazmuniy mezon, ma’muriy organlar uchun siyosiy va metodik yo‘nalish, Yevroosiyo guruhi o‘zaro baholashi uchun esa tashqi standart vazifasini bajaradi. 2021-yilda tasdiqlangan milliy strategiyada xalqaro standartlarni qonunchilik va amaliyotga joriy etish, idoralararo hamkorlik, axborot almashinuvi hamda kadrlar salohiyatini rivojlantirish vazifalari belgilangan [7]. Bu FATF hujjatlarining mazmuni milliy huquqiy shakllar orqali amalga oshirilishini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi 660-II-son “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni mazkur sohadagi asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi. Unda FATFning qator talablariga mos institutlar belgilangan. Xavflarni aniqlash va kamaytirish 1-tavsiyadagi riskka asoslangan yondashuv, mijozni lozim darajada tekshirish 10-tavsiya, shubhali operatsiyalar haqida xabar berish 20-tavsiya, maxsus vakolatli davlat organining tahliliy vakolatlari 29-tavsiya, idoralararo muvofiqlashtirish esa 2-tavsiya bilan funksional jihatdan bog‘liq.

Bu bog‘lanish FATF talabining so‘zma-so‘z ko‘chirilishini emas, milliy huquqiy tizimga moslashtirilishini anglatadi. Qonunda umumiy majburiyat belgilanadi, sektorning o‘ziga xos xususiyatlari esa ichki nazorat qoidalarida aniqlashtiriladi. Qonunning 6-moddasiga muvofiq, bunday qoidalar tegishli nazorat, litsenziyalash yoki ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan maxsus

vakolatli davlat organi bilan birgalikda tasdiqlanadi. Shu tariqa yagona xalqaro talab banklar, sug‘urta tashkilotlari, qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilari, notariuslar va boshqa subyektlar faoliyatida turli ma’muriy tartib-taomillar orqali amalga oshiriladi.

Institutsional implementatsiya maxsus vakolatli davlat organi, nazorat qiluvchi organlar va Idoralararo komissiya vakolatlarida namoyon bo‘ladi. Qonunning 9-moddasi maxsus vakolatli davlat organiga axborotni so‘rash va olish, operatsiyalarni tahlil qilish, materiallarni vakolatli organlarga yuborish, tavakkalchiliklarni baholashni tashkil etish, qonunchilikni qo‘llash amaliyotini umumlashtirish va xalqaro hamkorlikni amalga oshirish vakolatlarini beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3947-son qarori asosida faoliyat yurituvchi Idoralararo komissiya milliy xavflarni baholash, davlat siyosati bo‘yicha takliflar tayyorlash va xalqaro baholashlarga tayyorgarlikni muvofiqlashtiradi. Ushbu tuzilma markazlashtirilgan strategik boshqaruvni tarmoq nazorati bilan birlashtiradi.

Ma’muriy-protsessual amalga oshirish Vazirlar Mahkamasining 402-son qarori va sohaga oid normativ hujjatlar orqali ta’minlanadi. Axborotni elektron shaklda taqdim etish, shubhali operatsiyalarni aniqlash, ma’lumot almashish va maqsadli moliyaviy sanksiyalarni amalga oshirish tartiblari standartni kundalik boshqaruv faoliyatiga aylantiradi. Aynan shu bosqichda huquqiy aniqlik, vakolat doirasi, qarorni asoslantirish, mutanosiblik va shikoyat qilish kafolatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

FATF metodologiyasi texnik muvofiqlik va samaradorlikni alohida, ammo o‘zaro bog‘liq baholash yo‘nalishlari sifatida belgilaydi[8]. Texnik muvofiqlik zarur qonunlar, vakolatlar va institutsional tuzilmalar mavjudligini ko‘rsatadi. Samaradorlik esa ushbu vositalar amalda kutilgan natijani berayotganini baholaydi. Shuning uchun normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinishi implementatsiya yakunlanganini emas, faqat uning normativ bosqichi bajarilganini anglatadi.

Yevroosiyo guruhining 2022-yilgi O‘zbekiston bo‘yicha o‘zaro baholash hisoboti 2021-yil 14-iyundan 2-iyulgacha o‘tkazilgan missiyaning joylardagi o‘rganishlari (on-site baholash) davridagi holatni aks ettiradi [9]. Shu bois hisobotdagi samaradorlik xulosalari amaldagi joriy holat sifatida emas, keyingi islohotlarni tahlil qilish uchun boshlang‘ich institutsional baza sifatida qo‘llanishi kerak. Hisobotda xavflarni tushunish, milliy muvofiqlashtirish, moliyaviy razvedka va xalqaro hamkorlik bo‘yicha nisbatan yuqori natijalar qayd etilgan. Nazorat, preventiv choralar, yuridik shaxslar shaffofligi, jinoiy aktivlarni aniqlash va musodara qilish yo‘nalishlaridagi natijalar esa bir xil bo‘lmagan.

2023-yilgi birinchi keyingi monitoring hisobotida 6, 7 va 22-tavsiyalar bo‘yicha reytinglar “qisman muvofiq”dan “asosan muvofiq” darajasiga oshirilgan [10]. Biroq bu hisobot texnik muvofiqlikdagi o‘zgarishlarni qayd etadi va 11 ta bevosita natija bo‘yicha samaradorlik reytinglarini qayta baholamaydi. Shuning uchun normativ kamchilikning bartaraf etilishi amaliy natijadorlik ham avtomatik ravishda oshganini anglatmaydi.

FATF tavsiyalarini O‘zbekiston huquq tizimiga implementatsiya qilish borasida ma’muriy-huquqiy mexanizmni takomillashtirish yo‘nalishlari:

1. FATF hujjatlarining huquqiy maqomini aniqlashtirish. JFODL/TMQK to‘g‘risidagi qonunda FATF standartlari 40 ta Tavsiya, Izohlovchi qaydlar va

Glossariydagi tegishli ta’riflardan iborat ekani, rahbariy hujjatlar va tipologik materiallar esa yordamchi manba sifatida qo‘llanishi belgilanishi lozim. Standartlarning amaldagi ro‘yxati maxsus vakolatli davlat organining rasmiy resursida yuritilishi maqsadga muvofiq.

2. Standartlardagi o‘zgarishlarni joriy etish tartibini belgilash. Vazirlar Mahkamasi qarori bilan FATF standartlaridagi o‘zgarishlarni milliy qonunchilikka joriy etish tartibi tasdiqlanishi kerak. Unda normativ tafovutni aniqlash, ta’sirni baholash, mas’ul organni belgilash, loyiha tayyorlash, maslahatlashuv va monitoring bosqichlari nazarda tutilishi lozim.

3. Ochiq elektron muvofiqlik matritsasini yuritish. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti har bir FATF tavsiyasi, unga mos milliy norma, mas’ul organ, ijro ko‘rsatkichi va kamchilikni bartaraf etish muddatini aks ettiruvchi ochiq elektron matritsani yuritishi zarur. Maxfiy ma’lumotlar bundan mustasno qilinadi.

4. Ichki nazoratning minimal talablarini birxillashtirish. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tegishli nazorat, litsenziyalash va ro‘yxatdan o‘tkazish organlari bilan birgalikda tarmoq ichki nazorat qoidalari uchun yagona minimal talablarni ishlab chiqishi lozim. Ushbu talablar mijozni lozim darajada tekshirish, benefitsiar mulkdorni aniqlash, ma’lumotlarni saqlash, shubhali operatsiyalar haqida xabar berish, ichki audit va xodimlarni tayyorlashni qamrab olishi kerak.

5. Milliy samaradorlik indikatorlarini joriy etish. FATFning 33-tavsiyasiga muvofiq resurslar, tekshiruvlar, tahlil natijalari, qo‘llangan choralar, qaytarilgan aktivlar va xavflarning kamayishini o‘lchaydigan yagona indikatorlar tizimi ishlab chiqilishi, natijalar esa Idoralararo komissiyaning yillik hisobotida e’lon qilinishi lozim.

6. FATF rahbariy hujjatlaridan foydalanish chegaralarini belgilash. Tekshiruv dalolatnomasi yoki individual qarorda buzilgan milliy norma aniq ko‘rsatilishi, FATF materiali esa faqat qo‘shimcha talqin manbai sifatida keltirilishi mumkin. Qaror zarurat va mutanosiblik mezonlari bilan asoslantirilishi hamda undan shikoyat qilish imkoniyati ta’minlanishi kerak.

Xulosa

FATF hujjatlari bir xil yuridik tabiatga ega emas. Tavsiyalar, Izohlovchi qaydlar va Glossariydagi tegishli ta’riflar xalqaro standartlar majmuasini tashkil etadi; rahbariy hujjatlar, ilg‘or amaliyotlar va tipologik hisobotlar esa yordamchi metodik hamda tahliliy manbalardir. Bu farqni huquq ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotida saqlash qonuniylik hamda huquqiy aniqlik uchun zarur.

O‘zbekiston huquq tizimida FATF standartlari jismoniy va yuridik shaxslar uchun mustaqil huquq hamda majburiyatlarni bevosita yuzaga keltirmaydi. Ularning yuridik ta’siri tegishli talablar milliy normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanib, vakolatli organlar faoliyati va ma’muriy tartib-taomillarda amalga oshirilgandan keyin namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ular davlat uchun xalqaro baholash va institutsional muvofiqlik mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy tizimda implementatsiyaning asosiy normativ va institutsional elementlari shakllangan. Endigi vazifa FATF standartlaridagi o‘zgarishlarni joriy etishning barqaror tartibini belgilash, tarmoq qoidalarini uyg‘unlashtirish,

texnik muvofiqlikni natija ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash hamda rahbariy hujjatlardan foydalanish chegaralarini qonuniylik va mutanosiblik asosida aniqlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Financial Action Task Force. International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism & Proliferation: The FATF Recommendations. Updated October 2025. Paris: FATF/OECD, 2025.

2.United Nations Security Council. Resolution 2462 (2019), adopted on 28 March 2019. Paras. 4, 20, 28.

3.Turner N.W. International Regulatory Convergence Through Soft Law: The Case of the FATF // New York Law School Law Review. 2015. Vol. 59. P. 547–572.

4.Gathii J.T. The Financial Action Task Force and Global Administrative Law. 2010. Research Paper No. 11-08.

5.Goldbarsht D. Who’s the Legislator Anyway? How the FATF’s Global Norms Reshape Counter-Terrorist Financing Laws // Federal Law Review. 2017. Vol. 45. P. 1–25.

6.Бирюков П.Н. Имплементация документов ФАТФ в правовой системе Российской Федерации // Юридическая наука и практика: Вестник Нижегородской академии МВД России. 2023. № 2 (62). С. 118–121. DOI: 10.36511/2078-5356-2023-2-118-125.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyundagi PF-6252-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi — Lex.uz.

8.Financial Action Task Force. Methodology for Assessing Technical Compliance with the FATF Recommendations and the Effectiveness of AML/CFT/CPF Systems. 2022 Methodology, updated December 2025. Paris: FATF/OECD, 2025.

9.Eurasian Group on Combating Money Laundering and Financing of Terrorism. Mutual Evaluation Report of the Republic of Uzbekistan. 2022. P. 6–13.

10.Eurasian Group on Combating Money Laundering and Financing of Terrorism. Republic of Uzbekistan: 1st Enhanced Follow-up Report (with re-rating). 2023. P. 2–8.